

ХУҚУҚШУНОС ЭТИКАСИ

Murotova Sarvinoz Qobiljon qizi

Farg‘ona viloyati yuridik texnikumi “Sud-huquqiy faoliyat” yo‘nalishi

1-bosqich 32-guruh o‘quvchisi

Annotatsiya:

Ushbu maqolada muallif huquqshunos etikasi, umuman etika, ya’ni ahloq tushunchasi, kategoriyalari, huquqshunos kasb etikasining eng muhim xususiyatlari, axloqiy ong va axloqiy madaniyat tushunchalari, axloqiy va huquqiy munosabatlar o‘rtasida farqli tomonlar xususida fikrlar yuritgan.

Kalit so‘zlar: etika, ahloq, axloqiy ong, axloqiy madaniyat, kasb etikasi, axloqiy mezonlar, axloqiy tamoyillar, huquqiy munosabatlar.

Аннотация:

В этой статье автор рассуждал об этике юриста в целом, об этике в частности, о понятии этики, категориях, важнейших особенностях профессиональной этики юриста, о понятиях нравственного сознания и нравственной культуры, о различиях между этикой и правоотношениями.

Ключевые понятия: этика, мораль, нравственное сознание, нравственная культура, профессиональная этика, этические критерии, моральные принципы, правоотношения.

Abstract:

In this article, the author made opinions on differences between legal ethics, ethics in general, that is, the concept of morality, categories, the most important features of legal professional ethics, concepts of moral consciousness and moral culture, moral and legal relations.

Key concepts: ethics, ethics, moral consciousness, moral culture, professional ethics, moral criteria, moral principles, legal relations.

Kundalik hayotimizning har lahzasida, turli munosabatlarda o‘zimiz bilgan, bilmagan holatlarda, ba’zan e’tibor bermagan sharoitlarda etika yoki ahloq-odob



qoidalariga to‘qnash kelamiz. Juda qadim zamonlardan etika fan sifatida shakllanib keldi va o‘zining kategoriyalariga ega bo‘ldi.

Qadimgi yunon faylasufi Aristotel o‘z davrida mavjud fanlarni ta’riflarkan, ularni uchta guruhga ajratadi: nazariy fanlarga falsafa, matematika, fizikani; ijodiy fanlarga san’at, badiiy hunarmandchilikni; amaliy fanlarga esa etika va siyosatni kiritadi. Shu tariqa Etika falsafa doirasidan ajralib chiqadi va mustaqil fan sifatida shakllana boshlaydi. Bugungi kunda “Etika” ijtimoiy-falsafiy fanlar tizimida o‘ziga xos o‘ringa ega bo‘lgan fandır.

“Etika” (axloqshunoslik) – axloqning kelib chiqishi, mohiyati, xususiyatlari, jamiyat taraqqiyotidagi o‘rni haqidagi fan bo‘lib, boshqa ijtimoiy fanlar singari o‘z qonunlari va kategoriyalariga ega va ular orqali o‘z xulosalarini bayon qiladi. “Axloq” so‘zi arabcha so‘z bo‘lib, xulq-atvor, yurish-turish, tarbiya degan ma’nolarni anglatadi. Hozirgi vaqtda bu tushuncha jamiyatning axloqiy hayotida yuz beradigan barcha jarayonlarning majmuini aks ettiradi.

Ushbu maqolada biz o‘z mutaxassisligimizdan kelib chiqib, huquqiy etika, ya’ni huquqshunosning etikasi, axloqi xususida biroz mushohada yuritishni lozim topdik. Huquqiy etika – bu huquqshunoslarning xulq-atvor qoidalari majmuyini tashkil etuvchi, ular mehnatining axloqiy xususiyatlari va ishdan tashqari vaqtdagi xatti-harakatlarini ta’minlovchi, shuningdek axloq talablarini amalga oshirishning o‘ziga xos mexanizmidir.¹

Ma’lumki, yuristlar faoliyati har qanday ijtimoiy muhitda nufuzli hisoblangan va doimo chuqur hurmat va ehtiromga sabab bo‘lgan. Shu bois ham professional va ijtimoiy iyerarxiyadagi o‘rnidan qat’i nazar, jamoatchilik orasida yuridik kasbning madaniy va axloqiy xususiyatlariga bo‘lgan qiziqish yuqori hisoblanadi. Yuristning shaxsi, u oddiy yurist-maslahatchi bo‘ladimi yoki taniqli davlat arbobimi, har doim huquqiy muammoga duch kelgan odam uchun “sirli” tuyuladi. Huquqiy faoliyatda huquqshunos-nazariyotchi va huquqshunos-amaliyotchining shaxsiy jihatlari alohida ahamiyat kasb etadi, zero jamiyat o‘zining axloqiy mezonlari va ideallarini adliya va odil sud bilan o‘lchaydi. Ayniqsa bugungi globallashuv davrida, Yangi O‘zbekistonning ochiq demokratik siyosati bilan jahon hamjamiyatidagi o‘rni va mavqei yuksalib borayotgan bir vaqda, huquqiy faoliyatning barcha, elitadan boshlab, boshlang‘ich bosqichlari – yuridik maslahat, notarial amaliyotgacha

¹ Huquqiy ko‘nikmalar va metodologiya. [Matn]: darslik. / Mualliflar jamoasi. – Toshkent: Toshkent davlat yuridik universiteti, 2022. – 171-b.



bo'lgan sohalarida intellektual huquqiy madaniyatning yuksaltirishga bo'lgan talab ham kuchayib bormoqda. Tabiiyki, shaxslararo muloqot muhitida ishlaydigan yurist, kasbiy bilimlardan tashqari, axloqiy tamoyillarga asoslangan yuqori muomala madaniyatiga ega bo'lishi shart.

Albatta barcha sohalarda ham o'z kasb axloqi bo'ladi va bu kasb axloqi har bir kasb-hunarga xos axloqiy norma, prinsip va sifatlarni o'rganadi hamda hayotga tadbiq etadi. Har bir kasb-hunarga xos o'zining axloqiy normalari mavjud bo'ladi. Kasb axloqi – jamiyat tomonidan qabul qilingan axloq qoidalarini kishilarning ixtisoslariga nisbatan amalda tatbiq qiluvchi aniq kasbiy burch, sha'n, or-nomus, qadr-qimmat kabi xatti-harakatlarning majmuyi, umumiy axloqning kishilar kasb-koridagi o'ziga xos ko'rinishidir.² Lekin barcha kasblar orasidan shundaylarini ajratib ko'rsatish mumkinki, ular bajaradigan funksiyalarning axloqiy tomonlariga alohida ahamiyat talab etiladi. Aynan shunday kasblardan biri huquqshunoslik kasbidir.

O'rni kelganda aytib o'tish kerakki, biz huquqshunos bo'lganligimiz uchun ham huquqiy ong va huquqiy madaniyat tushunchalarini ko'p ishlatamiz. Albatta jamiyat hayotiga axloqiy ong va axloqiy madaniyat tushunchalari ham mavjudligi unutmashimiz lozim. Huquqiy ong bu qisqa qilib aytganda, shaxslarning huquq haqidagi bilimlari, qarashlari, tasavvurlari bo'lsa, huquqiy madaniyat unga nechog'lik amal qilishlarida ifodalandi. Shu sababli ham fuqarolik jamiyatidagi axloqiy yuksaklik darajasini fuqarolarning axloqiy madaniyati belgilaydi. Axloqiy madaniyat shaxsning jamiyat axloqiy tajribalarini egallash va bu tajribalardan boshqa odamlar bilan bo'lgan munosabatlarda foydalanishi, o'z o'zini muntazam takomillashtirib borishi singari jihatlarni o'z ichiga oladi.

Jamiyat ma'naviy hayotining bir-biri bilan bog'liq bo'lgan ikki sohasi – axloq va huquqning o'xshash va farqli tomonlari masalasi hozirgi kunda, ayniqsa, dolzarb hisoblanadi.

Shaxsning ma'naviy dunyosi, ongi va madaniyati shakllanishida axloq va huquq alohida o'ringa ega. Chunki ular ijtimoiy munosabatlar tizimi taraqqiyotiga ta'sir ko'rsatadigan, shu orqali shaxs ongini rivojlantiradigan muhim ijtimoiy boshqaruvchi hisoblanadi.

² Huquqiy ko'nikmalar va metodologiya. [Matn]: darslik. / Mualliflar jamoasi. – Toshkent: Toshkent davlat yuridik universiteti, 2022. – 184-b.



Demokratik fuqarolik jamiyatida axloq va huquqning o‘zaro aloqadorligi quyidagi qonuniyat tufayli obyektivlashadi – umumxalq huquqining axloqiy potentsiali hamda qonunchilikning axloqiy asoslari o‘zaro boradi.

Huquqni muhofaza qilish idoralari xodimlarining axloqiy munosabatlari bevosita ularning huquqiy munosabatlarida namoyon bo‘ladi. Bu birlik axloq va huquqning, shaxs bilan jamiyat, davlat o‘rtasidagi o‘zaro manfaatlar nisbatini to‘g‘ri belgilashi axloqiy munosabatlar hamda huquqiy munosabatlarning tenglik prinsipi o‘rtasida uyg‘unlikni ta‘minlagan holda, barchaga nisbatan bir xil talablar qo‘yilishida, har bir fuqaroning xulq-atvorini baholashda asosiy mezon - adolat prinsipining talablari asosida yondashishida; axloqiy va huquqiy tarbiyaning ishonirish usulidan keng foydalanilishida yaqqol ko‘rinadi.

Huquqni muhofaza qilish idoralari xodimlarining kasb axloqiy normalariga quyidagilar kiradi: xushmuomalalik va odoblilik, oddiylik va kamtarlik, halollik va rostgo‘ylik, ochiq ko‘ngillik va dangallik, saxiylik va muruvvatlilik, o‘zaro hurmat, samimiylilik, sipolik va h.k.

Yurist kasb etikasining eng muhim xususiyatlari:

- inson taqdiri bilan bog‘liq masalalarni hal qilishda his-tuyg‘uga berilmaslik,
- tanish-bilishchilik, qarindosh-urug‘chilik, mahalliychilik yoxud millatchilik kabi tuyg‘ularga berilmaslik,
- odil sudlovni amalga oshirishning barcha bosqichlarida axloq normalariga og‘ishmay rioya qilish.

Axloqiy va huquqiy munosabatlar o‘rtasida farqli tomonlar xususida quyidagilarni aytish mumkin:

Birinchiidan, yuqorida ta‘kidlaganimizdek, huquqiy munosabatlar davlat tomonidan, axloqiy munosabatlar esa jamoatchilik tomonidan e‘tirof etiladi va o‘rnatiladi; Ikkinchiidan, huquqiy munosabatlar davlatning majburlov tomonidan qo‘riqlanadi, axloqiy munosabatlar esa har bir insonning ichki e‘tiqodi, iymoni hamda jamoatchilik ta‘sir kuchi tomonidan muhofaza qilinadi.

Uchinchiidan, huquqiy munosabatlar davlat tomonidan chiqarilgan qonunlar va boshqa normativ hujjatlarda o‘z aksini topsa, axloqiy munosabatlar esa “yozilmagan qonunlar” shaklida bo‘ladi.

To‘rtinchiidan, huquqiy munosabatlar qonunda belgilangan huquq va burchlar orqali boshqariladi, axloqiy munosabatlar esa umuminsoniy qadriyatlar asosida tartibga solinadi.



Beshinchidan, huquqiy munosabatlarni buzganlik uchun davlat majburlov choralari ko‘rilsa, axloqiy munosabatlarni buzganlik uchun jamoat ta’siri ko‘rsatiladi.

So‘zimiz yakunida aytish lozimki, axloqiy munosabatlar va huquqiy munosabatlar uzviy birlikda bo‘lib, bir-birini to‘ldirib turadi. Bu birlik axloqiy munosabatlar talabining huquqda o‘z aksini topganligida va har qanday huquqiy munosabatlarning axloqiy mazmun kasb etishida namoyon bo‘ladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. Huquqiy ko‘nikmalar va metodologiya. [Matn]: darslik. / Mualliflar jamoasi. – Toshkent: Toshkent davlat yuridik universiteti, 2022.
2. Sher, Abdulla. Axloqshunoslik: Oliy ta’lim muassasalarining bakalavriat ta’lim yo‘nalishlari uchun darslik/ Abdulla Sher; mas’ul muharrir B.E. Husanov; O‘zbekiston Respublikasi Oliy va o‘rta maxsus ta’lim vazirligi. —T.: O‘zbekiston faylasuflari milliy jamiyati nashriyoti, 2010.
3. G. Nosirxo‘jayeva. Etika fanidan ma’ruza matni. Toshkent-2011.